

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Сеитов Азамат</b> СОЦИОЛОГИЯ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: УГРОЗА ИЛИ ВОЗМОЖНОСТЬ.....5	5
<b>2. Kirsanova N.P., Geger A.E., Gonashvili A.S.</b> YOUTH OF NON-GOVERNMENTAL UNIVERSITIES OF ST. PETERSBURG: A SOCIAL PORTRAIT.....12	12
<b>3. Латипова Нодира, Кара Шохсанам</b> НАСИЛИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН СОВРЕМЕННОСТИ.20	20
<b>4. Сабирова Умида</b> РОЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ.....29	29
<b>5. Якубов Ильдар</b> ПОНЯТИЯ СВОБОДЫ И ВРЕМЕНИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ.....34	34
<b>6. Аликариев Нуриддин, Абдухакимова Зиёда</b> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ.....41	41
<b>7. Axmedova Feruza</b> TIBBIYOT SOTSILOGIYASI FANINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.....49	49
<b>8. Burxanov Xusniddin</b> MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA PLATFORMALARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI.....61	61
<b>9. Dulanbayeva Oygul</b> MUTOLAA MADANIYATINING TARKIBI, TUZILMASI VA UNING IJTIMOIY ANAMIYATI.....69	69
<b>10. Кан Людмила</b> КОРЕЙСКИЙ СЛЕД В СОВРЕМЕННОЙ МУЗЫКЕ УЗБЕКИСТАНА: СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ.....76	76
<b>11. Mamatqulova Fotimaxon</b> DAVLAT PENSIYA TA’MINOTI TIZIMINING JORIY HOLATI VA UNI ISLOH ETISH KONSEPSIYASI.....82	82
<b>12. Мухаммадиева Нодира</b> ИНВАЛИДНОСТЬ КАК ОСНОВА ИНКЛЮЗИВНОСТИ.....88	88

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Mamatqulova Fotimaxon,**

Farg'ona Davlat Universiteti tayanch doktoranti

e-mail: fotimamatqulova95@gmail.com

### DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING JORIY HOLATI VA UNI ISLOH ETISH KONSEPSIYASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15528112>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat pensiya ta'minoti tizimining joriy holati va uni isloh etish konsepsiyasipensiya yoritilgan bo'lib, bunda Pensiya ta'minoti tizimi mehnatga layoqatsiz va kam ta'minlangan fuqarolarni turmush darajasni ta'minlash va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy xarakterga ega bo'lgan qator choratadbirlar kompleksining amalga oshirilishini nazarda tutadi. Davla pensiya ta'minoti turlari, ya'ni yoshga doir, nogironligi bo'yicha pensiya oluvchilar, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchilar tadbiq etilib uni sotsial tahlil qilingan. Shuningdek, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zi:** pensiya, ijtimoiy yordam, islox etish konsepsiyasi, aholiga ijtimoiy ko'mak, nafaqa, imkoniyat cheklanganlar, pensiya ta'minoti tizimi, moliyalashtirish.

**Mamatkulova Fatimakhan,**

Doctoral student of Fergana State University

e-mail:fotimamatqulova95@gmail.com

### THE CURRENT STATE OF THE STATE PENSION PROVISION SYSTEM AND THE CONCEPT OF ITS REFORM

#### ANNOTATION

Ushbu maqolada davlat pensiya ta'minoti tizimining joriy holati va uni isloh etish konsepsiyasipensiya yoritilgan bo'lib, bunda Pensiya ta'minoti tizimi mehnatga layoqatsiz va kam ta'minlangan fuqarolarni turmush darajasni ta'minlash va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy xarakterga ega bo'lgan qator choratadbirlar kompleksining amalga oshirilishini nazarda tutadi. Davla pensiya ta'minoti turlari, ya'ni yoshga doir, nogironligi bo'yicha pensiya oluvchilar, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchilar tadbiq etilib uni sotsial tahlil qilingan. Shuningdek, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

**Kalit so'zi:** pensiya, ijtimoiy yordam, islox etish konsepsiyasi, aholiga ijtimoiy ko'mak, nafaqa, imkoniyat cheklanganlar, pensiya ta'minoti tizimi, moliyalashtirish.

Маматкулова Фатимахан,  
Докторант Ферганского государственного университета  
e-mail: fotimamatqulova95@gmail.com

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ И КОНЦЕПЦИЯ ЕЕ РЕФОРМИРОВАНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается текущее состояние системы государственного пенсионного обеспечения и концепция ее реформирования, предусматривающая реализацию комплекса мероприятий экономического, правового, социального и организационного характера, направленных на обеспечение и поддержание уровня жизни нетрудоспособных и малообеспеченных граждан. Виды государственного пенсионного обеспечения, то есть получатели пенсий по возрасту, по инвалидности, по случаю потери кормильца, были применены и проанализированы социально. Также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию системы пенсионного обеспечения.

**Ключевое слово:** пенсия, социальная помощь, концепция реформирования, социальная поддержка населения, пенсия, инвалиды, система пенсионного обеспечения, финансирование.

### KIRISH

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng barcha sohalar qatori pensiya ta‘minoti tizimini ham tubdan isloh qilish zarurati tug‘ildi. Unda, sobiq tuzumning Pensiya jamg‘armasining O‘zbekiston bo‘limi mavjud bo‘lib, musaqillikdan so‘ng 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasiga aylantirildi. Bu davr bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishning murakkab davri xisoblanib, usha davrda – mablag‘ yetishmayotgan, inflatsiya darajasi muttasil ortib borayotgan, ishlab chiqarish hajmlari sustligi, fuqarolarning daromadi kamayib borayotgan sharoitlarda Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi aholining nochor qismiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish vazifasini muvaffaqiyatli bajarib, 1993-yilda “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga ko‘ra fuqarolarni ijtimoiy ta‘minoti va muhofazasi ta‘minlandi. Mazkur hujjatda mamlakatning milliy va demografik xususiyatlari hisobga olingan, yuqori unumli, munosib ish haqi to‘lanadigan mehnatni rag‘batlantirish choralari belgilangan.

Demak, davlat pensiya ta‘minoti tizimi yoshga doir pensiya va mehnatga layoqatsiz, kam ta‘minlangan fuqarolarni turmush darajasini yaxshilanishini ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakterga ega. Ushbu tizim 3,3 mln.dan ko‘proq fuqarolarni yoki mamlakat aholisining taxminan 10 foizini qamrab oladi.

### METODOLOGIYA

Pensiya tizimini doimiy baholab boruvchi xalqaro reyting tashkilotlari mavjud. Bular Melburn Merse global pensiya indeksi (Melbourne Mercer Global Pension Index), global pensiya indeksi, (Global Retirement Index), keksalarning hayot sifati indeksi (Global AgeWath Index). Xan, Kemptner, Lyuzenlar o‘z tadqiqotlarida 65 yoshgacha umr ko‘rish va umr ko‘rish davomiyligi o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni tadqiq qilishgan. Ularning ta‘kidlashicha, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi pensiya tizimi uchun muhim va tegishli taqsimlovchi oqibatlarga ega: umrning davomiyligini hisobga olgan holda Germaniya pensiya tizimidagi imtiyozlar va ustuvorliklar o‘rtasidagi yaqin munosabatlarga qaramay, regressiv ekanligini aniqlashgan [1].

O‘zbek olimlaridan A.Vaxabovning pensiya tizimini xorij tajribasi bo‘yicha yozgan darsligida taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya tizimlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek nodavlat pensiya fondlari faoliyati ham tadqiq etilgan. Biroq pensiya tizimidagi kamchiliklar, xalqaro pensiya fondlari aktivlari, indekslari tahlil qilinmagan. Xalqaro tajribalarni O‘zbekistonga qo‘llash bo‘yicha xulosalar qilinmagan [2, – B.400].

### ASOSIY QISM

Tadqiqot jarayonida xorijiy mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimlarining shakllanishidagi tajribalari, shuningdek xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek pensiya tizimidagi mavjud muammolar va ularni yechimlari, bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Hozirgi vaqtda pensiya tizimidagi islohotlarga bo'lgan ehtiyoj demografik holatning o'zgarishi bilan bog'liq (nafaqaxo'rlar soning ko'payishi bilan mehnatga layoqatli aholi sonining kamayishi). Shuningdek tibbiyotni rivojlanib borishi natijasida dunyo aholisining o'rtacha umr ko'rish yoshi oshib bormoqda. Jahon iqtisodiy forumining metodologiyasiga muvofiq, sog'liqni saqlash darajasi (jumladan, umr ko'rish davomiyligi) davlat raqobatbardoshligini belgilaydigan omillar qatoriga kiradi [3, – B.35-40]. Jahonda aholining qarishi – mamlakatda tug'ilishning qisqarishi va umr ko'rish davomiyligining ortishi oqibatida yuzaga kelgan tushuncha yoki aniqroq qilib aytganda global muammo deyishimiz mumkin. Ushbu jarayonning natijalari ko'plab mamlakatlar uchun, ularning aholisi uchun uzoq muddatli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hattoki psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur holatlar mavjud pensiya tizimini isloh etishni talab etadi.

Shu o'rinda pensiya va nafaqa tushunchalari bir biridan farq qilib, davlat pensiya ta'minotini navbadagi turlarga ajratish mumkin:

- ✓ yoshga doir pensiya.
- ✓ nogironlik pensiyasi.
- ✓ boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Pensiya tizimining yoshga doir pensiya olish huquqiga:

- ✓ erkaklar – 60 yoshga to'lganda va kamida 25 yil ish stajiga ega bo'lish talab etiladi;
- ✓ ayollar – 55 yoshga to'lganda va kamida 20 yil ish stajiga ega bo'lish talab etiladi;

Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan isonlarga tayinlanadi. Shuningdek, kasb kasalligiga uchraganda hamda mehnat faoliyati davomida beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi. Shu o'rinda, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqi boquvchisi vafot etgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga ega bo'lgan shaxslarga belgilanadi. Pensiya yoshiga yetib, zaruriy ish stajiga ega bo'lmagan taqdirda, ammo kamida 7 yillik ish staji mavjud bo'lsa, bor stajiga mutanosib ravishda to'liqsiz miqdorda yoshga doir pensiya tayinlanadi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi.

Shu qatorda davlat ta'minotlaridan yana biri nafaqa turi ham mavjud bo'lib, nafaqa nizomga ko'ra 3 turga bo'linadi:

1. Yoshga doir nafaqa, erkaklarga — 65 yoshga yetganlarida; ayollarga — 60 yoshga yetganlarida;
2. Nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslardan tashqari), bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor onalarga — 55 yoshga yetganlarida tayinlanadi.
3. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi.

Haq to'lanadigan ishda ishlaydigan yoki boshqa daromad manbaiga ega bo'lgan shaxslarga yoshga doir nafaqa tayinlanmaydi. Ish stajiga ega bo'lmagan shaxs (bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor onalardan tashqari) yoshga doir nafaqa mehnatga layoqatli voyaga yetgan farzandlari, qarindoshlari yoki O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan boshqa shaxslar bo'lmagan taqdirda tayinlanadi. Hamda, nogironlik nafaqasi nogironlik sodir bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga tayinlanadi va to'lanadi.

Olingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yoshga doir pensiya oluvchilar 2 502,6 ming nafar, nogironlik bo'yicha pensiya oluvchilar 360,3 ming nafar, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchilar 168,5 ming nafar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar 294,1 ming nafarni tashkil etadi [4]. Demografik bashoratlarga ko'ra, 2018-2025-yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 million kishiga) oshishi kutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Pensiya jamg'armasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi [5].

Mamlakat fuqarolari pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri pensiya yoshi hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yosh bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh).

Fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidenti qaroriga ko'ra, yoshga doir pensiyalarni proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etiladi. Bunda, 2025-yil 1-martdan fuqarolarga yoshga doir pensiyalar alohida murojaat talab etmagan holda, Pensiya jamg'armasining axborot tizimi orqali tegishli ma'lumotlariga asosan tayinlanadi.

Unga ko'ra 2023-yil 31-oktabr kuni "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-353-sonli qarori qabul qilindi [6, – B.66].

Qarorga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan:

- fuqarolarga pensiya tayinlash uchun amaldagi tartibga qo'shimcha ravishda ularning xohishiga ko'ra DXM yoki YAIDXP (my.gov.uz) orqali ham murojaat qilish huquqi beriladi;
- fuqarolar pensiya tayinlanganidan so'ng shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larini YAIDXP yoki AT "Xalq banki"ning mobil ilovasi orqali olishi mumkin bo'ladi.

Bunda, Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larni olish huquqini beruvchi sertifikat berish tartibi bekor qilinadi.

2025-yil 1-martgacha fuqarolarga pensiya tayinlanishi yoki pensiya miqdoriga ta'sir qiluvchi qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish yuzasidan fuqaroning mobil aloqa vositasiga SMS-xabar yuborish tartibi joriy etiladi [7].

Bunda, yoshga doir pensiyalar Pensiya jamg'armasining axborot tizimi orqali tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvi asosida olinadigan fuqaroning ish staji, ish haqi hamda boshqa ma'lumotlariga asosan hisoblanadi va tayinlanadi.

Fuqarolarga pensiya yoshiga yetib mehnat faoliyatini davom ettirgan holda keyinchalik yoshga doir pensiyaga chiqish istagini bildirganida proaktiv shaklda tayinlangan pensiyani rad qilish huquqi beriladi.

Mutaxassislar fikricha hozirgi kunda dunyoda 268 turdagi pensiya tizimlari mavjud [8].

Xorijiy mamlakatlar tajribalariga nazar solsak, jahonda ikki hil pensiya tizimi mavjud. Bular:

– Taqsimlanuvchi pensiya tizimi (pay-as-you-go) – mazkur tizimni birdamlik tizim deb ham aytish mumkin, chunki bu tizimda ishlovchi xodimlar Pensiya jamg'armasiga tegishli tartibda majburiy ijtimoiy sug'urta badallarini to'laydilar hamda ushbu badallar asosida yig'ilgan mablag'lardan pensionerlarga tegishli pensiyalar tayinlanadi.

– Jamg'arib boriluvchi pensiya tizimi (funded) – bunda hodimning ish haqidan tegishli Pensiya jamg'armasining (bank, xususiy tashkilot va b.) shaxsiy hisobvarag'iga ma'lum bir belgilangan miqdorda mablag' o'tkazib borish evaziga keksalikda ma'lum bir mablag' bilan ta'minlanadi. Ushbu pensiya tizimidan XX asrning oxiriga kelib faqat beshta mamlakat (Boliviya, Chili, Salvador, Meksika va Qozog'iston) foydalangan. Hozirda esa ko'plab mamlakatlarda mavjud, jumladan, O'zbekistonda ham 2005-yildan boshlab jamg'arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishning ikki xil ya'ni ixtiyoriy va majburiy turlari mavjud. Xorijiy mamlakatlarda ushbu pensiya tizimining ixtiyoriy turi keng taraqqiy etgan bo'lib, O'zbekistonda esa aksincha majburiy turi 1 % miqdoridagi stavka bilan (2018-yil 1-yanvardan boshlab 2% etib belgilandi) ishlovchilar qamrab olingan.

Shu o'rinda Xitoy tajribalariga e'tibor bersak, 2040-yilgacha pensiya yoshini bosqichma-bosqich [9, – B.80-85] oshirish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, Butunxitoy xalq vakillari kongressi tomonidan ma'qullangan islohotda, Butunxitoy xalq vakillari kongressi milliy sotsialistik partiyasining doimiy qo'mitasi "yangi demografik vaziyatga moslashish" deb tushuntirdi. Keyinchalik nafaqaga chiqish "inson resurslaridan to'liq foydalanish va rivojlantirish" imkonini beradi deb qaraydilar. Demak, Xitoyda Bu vaqtga kelib erkaklar uchun pensiya yoshi 60 yoshdan 63 yoshgacha oshiriladi. Ishlab chiqarishda ishlaydigan ayollar 55, rahbar ayollar 58 yoshda nafaqaga chiqadi.

O'rganilgan rasmiy ma'lumotlar va sotsiologik taxlillar natijalari taxliliga ko'ra, Mamlakatimizda pensiya tizimini isloh qilish, xususan, xususiy pensiya fondlarini tashkil etishga ruxsat berish, pensiya fondlarini kapital bozorida ishtirokini ta'minlash O'zbekiston moliya tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi kunda davlat pensiya ta'minoti tizimi 3,3 mln.dan ortiq kishini yoki mamlakatimiz aholisining qariyb 10 foizini qamrab oladi. Shu jumladan, yosh bo'yicha pensiya oluvchilar 2502,6 ming kishini, nogironlik bo'yicha – 360,3 ming kishi, boquvchisini yo'qotgani uchun – 168,5 ming kishi, ijtimoiy nafaqa oluvchilar – 294,1 ming kishini tashkil etadi [10].

Bundan tashqari, norasmiy sektorda ishlashga majbur bo'layotgan ishchilar, o'zini o'zi ish bilan ta'minlovchilar, chet ellarda faoliyat olib borayotgan fuqarolar, qishloqlarda farzand tarbiyasi va uy yumushlari bilan mashg'ul ayollar o'zlarining nafaqa hayoti uchun daromadlarini rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Mazkur omillarni inobatga olib, mamlakatimizda pensiya tizimini isloh qilish, xususan, xususiy pensiya fondlarini tashkil etishga ruxsat berish, pensiya fondlarini kapital bozorida ishtirokini ta'minlash O'zbekiston moliya tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan bir qatorda, Filippin va Gruziya ajribalarini o'rgansak, unga muvofiq Gruziya 2019-yil 1-yanvardan yangi pensiya tizimini joriy qildi. Ushbu islohotdan birinchi maqsad pensiya yoshidagi fuqarolarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'lsa, ikkinchi maqsad kapital bozorini rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu yangi pensiya tizimini to'liq tadbiiq qilishni bir necha bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan. Birinchi bosqichda 2019-yildan 1-yanvardan 40 yoshdan kichik bo'lgan barcha ishchilar (ish bilan ta'minlanganlardan tashqari) yangi pensiya tizimiga majburiy kiritildi. Yoshi 40 yoshdan oshgan ishchilar va o'z-o'zini ish bilan ta'minlaganlar ixtiyoriy ravishda yangi tizimda ishtirok etishlari mumkinligi belgilandi [11]. Tajribalarga tayangan holda va ularni taxlil qilgan xolda, O'zbekiston respublikasida ijtimoiy himoya fondi yoki xususiy pensiya fondlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

#### **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, ma'lum ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarga pensiya tayinlanadi hamda yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarga, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarga, ishsizsizlarga, shuningdek, mehnat shartnomasi bekor qilingan ayrim holatlarda va xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan nafaqalar beriladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahlil qilganda xalqaro amaliyotda 3 turdagi pensiya tizimi amal qilishi va ularning investitsion faoliyatni amalga oshirish mexanizmlarining rivojlanganligini ko'rishishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Peter Haan, Daniel Kemptner, Holger Lüthen, (2019) The rising longevity gap by lifetime earnings – Distributional implications for the pension system, The Journal of the Economics of Ageing, 100199.
2. Вахабов А.В. ва бошқ. Пенсия тизимини ривожлантиришнинг хориж тажрибаси. Дарслик. – Тошкент: "Иқтисод-молия", 2018. – 400 б.
3. The Global Competitiveness Report 2015-2016, World Economic Forum, 2015. – P. 35-40. [Electronic resource].

4. <https://review.uz/uz/post/pensiya-tizimining-uzoq-muddatli-barqarorligini-taminlash-moliyalashtiriladigan-pensiya-tizimini-yaratish>.
5. <https://kun.uz>.
6. Ражабов Ш.У. Нодавлат пенсия жамғармаларини шакллантириш ва инвестицион фаолликни ошириш. Иқт. фан. бўй. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2018. – 66 б.
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/01/pension>.
8. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги хабари маълумоти.
9. Дамбаева Д.Р., Базарова Т.С. Особенности системы социальной защиты в Китае/ Вестник Бурятского Государственного Университета, 2015. –С.80-85.
10. <https://kun.uz>.
11. <https://review.uz/uz/post/pensiya-tizimining-uzoq-muddatli-barqarorligini-taminlash-moliyalashtiriladigan-pensiya-tizimini-yaratish>.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000